



UDK: 811.134.2'373.7:81'27:008

Umida DUSHAYEVA,

PhD, dotsent,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: [umida.77.ud@gmail.com](mailto:umida.77.ud@gmail.com) ORCID: <https://orcid.org/0000-0001-5469-2223>

GUDPI dotsenti, PhD D.Samatova taqrizi asosida

### ISPAN TILI FRAZELOGIYASINING LINGVOMADANIY VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotsatsiya

Mazkur tadqiqotda ispan tili frazeologik birliklarining struktur-semantik, kognitiv va lingvokulturologik xususiyatlari kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari frazeologiya kommunikativ iqtisod va ekspressivlikni ta'minlovchi mexanizm ekanini ko'rsatadi. Mazkur maqolada ispan tili frazeologik birliklarining (FB) struktur-semantik, kognitiv-pragmatik va lingvokulturologik xususiyatlari tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi. Frazeologik birliklarning konseptual metafora va metonimiya mexanizmlari orqali shakllanishi, ularning diskursiv funksiyalari, normativ-variantlik muammosi hamda zamonaviy mediadiskursdagi transformatsion modellari yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** struktur-semantik, kognitiv, diskursiv strategiyalar, milliy-madaniy kod.

### LINGUISTOCULTURAL AND PRAGMATIC FEATURES OF SPANISH PHRASEOLOGY

Annotation

This article analyzes the structural-semantic, cognitive-pragmatic, and linguocultural features of Spanish phraseological units using a systematic approach. The study examines the formation of phraseological units through conceptual metaphor and metonymy, their discursive functions, the problem of normativity and variation, as well as their transformational models in modern media discourse.

**Keywords:** structural-semantic, cognitive, discursive strategies, national-cultural code.

### ЛИНГВИСТОКУЛЬТУРНЫЕ И ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИСПАНСКОЙ ФРАЗЕОЛОГИИ

Аннотация

В данном исследовании на основе комплексного подхода анализируются структурно-семантические, когнитивные и лингвокультурные свойства испанских фразеологических единиц. Результаты исследования показывают, что фразеология является механизмом, обеспечивающим коммуникативную экономичность и выразительность. В данной статье структурно-семантические, когнитивно-прагматические и лингвокультурные свойства испанских фразеологических единиц (ФЕ) анализируются на основе систематического подхода. Подчеркивается формирование фразеологических единиц посредством механизмов концептуальной метафоры и метонимии, их дискурсивные функции, проблема нормативно-вариантных и трансформационных моделей в современном медиадискурсе.

**Ключевые слова:** структурно-семантические, когнитивные, дискурсивные стратегии, национально-культурный код.

**Kirish.** Til insoniyatning muhim ijtimoiy fenomeni bo'lib, frazeologiya uning madaniy qatlamini aks ettiradi. Ispan tilida frazeologik birliklar milliy mentalitetni ifodalaydi. Frazeologiya – til tizimining eng konservativ, ayni paytda eng dinamik qatlamlaridan biridir. Ispan tilida FBlar nafaqat leksik-semantik boylikni, balki tarixiy tajriba, diniy-madaniy stereotip va ijtimoiy qadriyatlarni ham kodlaydi. Shuning uchun ularni faqat semantik birlik sifatida emas, balki madaniy matn sifatida o'rganish talab etiladi. Til jamiyatning tarixiy, madaniy va ijtimoiy tajribasini o'zida mujassam etuvchi murakkab tizimdir. Har bir til o'z egalarining borliqni idrok etish uslubi, qadriyatlarini va kommunikativ xulq-atvorini aks ettiradi. Shu bois tilni faqat grammatik tizim sifatida emas, balki madaniy fenomen sifatida o'rganish zarur.

Ispan tili lingvokulturologik jihatdan boy tizim bo'lib, unda emotsionallik, kommunikativ ochiqlik va ijtimoiy yaqinlik kabi mental xususiyatlar kuchli namoyon bo'ladi. Mazkur xususiyatlar til birliklari orqali real nutqda aks etadi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi - ispan tilida milliy mentalitet qanday lingvistik vositalar orqali ifodalanishini aniqlash va ularni tizimli ravishda tahlil qilishdan iborat.

Ispan frazeologiyasini ilmiy jihatdan asoslashda Julio Casares, Alberto Zuluaga, Gloria Corpas Pastor, Luis Fernando

Lara kabi olimlar muhim nazariy platforma yaratgan. Zamonaviy kognitiv paradigma esa George Lakoff va Mark Johnson konseptual metafora nazariyasi bilan boyidi. Til va tafakkur o'rtasidagi munosabat lingvistik nisbiylik nazariyasi doirasida keng yoritilgan bo'lib, unga ko'ra til insonning borliqni idrok etish modeliga ta'sir ko'rsatadi (Sapir, 1921; Whorf, 1956). Bu yondashuvga ko'ra, har bir til o'ziga xos mental modelni shakllantiradi.

Lingvokulturologiya tilni madaniy kod sifatida talqin qiladi. Til birliklari orqali xalqning tarixiy tajribasi va qadriyatlarini uzatiladi. Ayniqsa, frazeologik birliklar va metaforalar milliy mentalitetni ifodalashda muhim rol o'ynaydi.

Kognitiv lingvistika doirasida metafora inson tafakkurining asosiy mexanizmlaridan biri sifatida qaraladi (Lakoff & Johnson, 1980). Metafora orqali abstrakt tushunchalar konkret obrazlar orqali anglanadi. Diskurs tahlili esa tilning ijtimoiy funksiyasini ochib beradi va kommunikativ strategiyalar orqali mentalitetni o'rganish imkonini beradi (van Dijk, 2008). O'zbek tilshunosligida ham til va mentalitet o'rtasidagi bog'liqlik pragmalingvistika doirasida tahlil qilingan (Safarov, 2006).

**Metodlar.** Tadqiqotda lingvokulturologik, semantik va diskurs tahlili metodlari qo'llanildi. Frazeologik birliklar alohida tahlil qilindi. Qiyosiy metod orqali ispan va o'zbek tillari o'rtasidagi farqlar aniqlashtirildi. Tadqiqot materiali sifatida ispan tilidagi ommaviy axborot vositalari, kundalik nutq va iboralar tanlab olindi. Tadqiqotda korpus-lingvistik, komponent tahlil, konseptual metafora va qiyosiy-tipologik metodlar qo'llanildi.

**Natijalar.** Frazeologik birliklar quyidagi turlarga ajratildi: idiomlar, kollokatsiyalar, paremiologik birliklar. Metaforik modellar: hayot - kurash, hayot - yo'l. Frazeologik birlik tushunchasi FB – tarkibiy jihatdan barqaror, ma'nosi komponentlar yig'indisidan to'liq kelib chiqmaydigan, reproduktiv xarakterga ega til birligidir. Ispan tilida FBlar quyidagi mezonlar asosida ta Barqarorlik darajasi (fijación)

Semantik yaxlitlik (idiomaticidad)  
Reproduktivlik (reproducción fija)  
Variantlik imkoniyati

Struktur tasnif		
Tur		Misol
	Xususiyat	
To'liq idiom		estar en las
nubes	Metaforik ko'chish	
Qisman idiom		romper el silencio
	Semantik kengayish	
decisión	Kollokatsiya	tomar una
	Leksik bog'liqlik	
	Paremiologik birlik	A caballo regalado no se le mira el diente
	Didaktik-folklorik	

Ispan frazeologiyasining asosiy mexanizmi – konseptual metafora hisblanadi masalan: tirar la toalla → “kurashni to'xtatish” (sport konsepti → hayotiy kurash) estar en la cuerda floja → “xavfli vaziyatda bo'lish” bu birliklar hayotni “kurash”, “muvozanat”, “yo'l” kabi universal konseptlar orqali tushuntiradi.

Lingvokulturologik kod ispan tilida diniy, tarixiy va etnografik qatlam kuchli aks etadi. Armarse la de San Quintín (tarixiy voqea bilan bog'liq), no hay moros en la costa (rekonkista davri madaniy izi), ser más papista que el Papa (katolik mentaliteti aks-sadosi), bu birliklar milliy ongning tarixiy qatlamini saqlaydi.

Diskursiv-pragmatik funksiyalar frazeologik birliklarda emotsional intensivlik beradi, nutqni iqtisod qiladi, ijtimoiy identifikatsiyani kuchaytiradi, ironiya va sarkazmni ifodalaydi.

Zamonaviy mediadiskursda FBlar transformatsiyaga uchraydi masalan tirar la toalla → no tiramos la toalla digital.

Ispan frazeologiyasi normativ jihatdan quyidagi manbalarda qayd etilgan zamonaviy manbalar kodifikatsiya qilingan:

Real Academia Española  
Diccionario de la lengua española  
Diccionario fraseológico documentado del español actual sniflanadi:

**Muhokama.** Natijalar frazeologiya kognitiv va madaniy tizim ekanini ko'rsatadi. Ispan va o'zbek tillari o'rtasida kommunikativ farqlar mavjud. Ispan tilidagi tirar la casa por la ventana va o'zbek tilidagi “qo'lini ochiq tutmoq” birliklari semantik jihatdan yaqin, ammo obraz tizimi turlicha. Bu holat universallik va milliylik dialektikasini

ko'rsatadi. Frazeologiya orqali mentalitet ifodasi ispan tilidagi frazeologik birliklar xalqning dunyoqarashini aniq ifodalaydi. Masalan, “No pasa nada” iborasi muammolarga yengil munosabatni bildiradi. Bu ibora nafaqat til birligi, balki mental yondashuvni ifodalaydi. Yana bir misol - “A mal tiempo, buena cara”, bu ibora og'ir vaziyatda ham ijobiylikni saqlashni anglatadi. Mazkur birliklar ispan mentalitetida optimizm va moslashuvchanlik muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Bu esa kommunikativ jarayonda stressni kamaytirish va ijtimoiy barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi.

Diskurs va emotsionallikda ispan nutqi yuqori darajadagi emotsionallik bilan tavsiflanadi. Kundalik muloqotda “¡Qué increíble!”, “¡Madre mía!” kabi iboralar faol qo'llanadi. Bu birliklar orqali nutq hissiy tus oladi va suhbatdoshga ta'sir kuchayadi. Media diskursda ham emotsionallik saqlanadi. Masalan, “Estamos viviendo una situación increíble” kabi gaplar orqali voqea hissiy jihatdan ta'kidlanadi. Bu holat ispan kommunikativ madaniyatida subyektivlik muhim ekanini ko'rsatadi.

Nutq etiketi va ijtimoiy yaqinlik Ispan tilida ijtimoiy masofa qisqa bo'lib, tezda norasmiy muloqotga o'tiladi. “tú” shaklining keng qo'llanilishi bu holatni tasdiqlaydi. Bu esa tenglik va ochiqlikni ifodalaydi.

O'zbek tilida esa aksincha, hurmat shakllari ustun bo'lib, “siz” shakli keng qo'llanadi. Bu ijtimoiy ierarxiya va masofani saqlashga xizmat qiladi. Demak, nutq etiketi orqali mentalitetdagi farqlar yaqqol ko'rinadi.

Metaforik modellar ispan tilida metaforalar orqali mentalitet chuqur ifodalanadi. “La vida es una fiesta” metaforasi hayotga ijobiy qarashni bildiradi. Bu metafora ispan madaniyatida hayotdan zavqlanish muhim ekanini ko'rsatadi. Yana bir misol - “El tiempo vuela”, bu ibora vaqtni tez o'tuvchi hodisa sifatida idrok etishni bildiradi. Metaforalar orqali xalqning vaqtga, hayotga va his-tuyg'ularga munosabati aniqlanadi.

Ispan tilida kommunikatsiya ochiq va emotsional bo'lsa, o'zbek tilida rasmiylik va hurmat ustun. Ispan tilida bevosita nutq ustun bo'lsa, o'zbek tilida bilvositalik ko'proq kuzatiladi. Bu farqlar ikki xalqning mentalitetidagi asosiy tafovutlarni aks ettiradi. Ispan madaniyatida erkinlik va ochiqlik muhim bo'lsa, o'zbek madaniyatida tartib va hurmat ustun hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy mentalitet tilning turli darajalarida ifodalanadi. Frazeologiya, diskurs va nutq etiketi eng muhim indikatorlar hisoblanadi. Metaforalar esa mental modelni tushinishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi

**Xulosa.** Frazeologiya milliy ong va madaniy kod tashuvchisi hisoblanadi. Ispan tilida milliy mentalitet kompleks lingvistik tizim orqali ifodalanadi. Lingvokulturologik yondashuv bu jarayonni chuqur anglash imkonini beradi. Qiyosiy tahlil esa turli madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Ispan tili frazeologiyasi milliy ong va tarixiy xotiraning til modeli, kognitiv metafora orqali konseptual tizimni aks ettiruvchi qatlam, diskursiv strategiya va pragmatik intensivlik vositasi, zamonaviy mediadiskursda aktiv transformatsiyalanayotgan tizim hisoblanadi. Frazeologiya nafaqat “tayyor iboralar ombori”, balki mental model va madaniy kodni tashuvchi mexanizmdir tadqiqotlar uni kognitiv-pragmatik, korpus va qiyosiy tipologik yo'nalishda chuqurlashtirishni talab etadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Kecskes, I. (2015). Intercultural Pragmatics. Oxford: Oxford University Press.
2. Sharifian, F. (2017). Cultural Linguistics. Amsterdam: John Benjamins.
3. Wierzbicka, A. (2018). Emotions Across Languages and Cultures. Cambridge: Cambridge University Press.
4. van Dijk, T. A. (2016). Discourse and Knowledge. Cambridge: Cambridge University Press.

5. Goddard, C. (2018). *Minimal English for a Global World*. London: Palgrave.
6. Kövecses, Z. (2015). *Where Metaphors Come From*. Oxford: Oxford University Press.
7. Kecskes, I. (2018). *Context in Intercultural Communication*. Oxford: Oxford University Press.
8. Yo'ldoshev, B. (2015). *Lingvokulturologiya asoslari*. Toshkent: Fan.
9. Karimov, S. (2018). *Lingvopragmatika*. Toshkent: Fan.
10. Eshonqulov, J. (2016). *Diskurs tahlili asoslari*. Toshkent: Akadernashr.
11. Xudoyberganova, D. (2019). *Matn lingvistikasi*. Toshkent: Tafakkur.
12. Mahmudov, N. (2017). *Til va nutq madaniyati*. Toshkent: Fan.
13. Rasulov, R. (2018). *Til va tafakkur*. Toshkent: Fan.
14. Iskandarova, Sh. (2016). *Frazeologiya va madaniyat*. Toshkent: Fan.
15. Nurmonov, A. (2016). *O'zbek tilshunosligi asoslari*. Toshkent: Akadernashr.
16. Rahmatullayev, Sh. (2017). *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. Toshkent: Universitet.
17. Safarov, Sh. (2016). *Pragmalingvistika*. Toshkent: Fan.
18. Dushayeva U.Y. (2024. 110 b.) *Ispan tilida komparativ frazeologizmlarning struktur-semantik va funksional xususiyatlari* Dissertatsiya. Toshkent.